

HANGOMA SHE'RLARDA KULGINING O'ZIGA XOS IFODASI

Xaitov Xamza Axmadovich

Buxoro davlat Pedagogika instituti dotsenti.

Ibodullayeva Shaxinabonu Shukrullo qizi

Buxoro davlat Pedagogika instituti I bosqich talabasi.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek adabiyotida hangoma janrining taraqqiyoti va hangomalarda kulgi masalasi ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

kalit so'zlar: Hangoma, olomon, yig'in, xushchaqchaq suhbat, ko'tarinki ruh, chol, kampir, Oltiariq hangomalari va hokazo.

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohalarda bo'lgani kabi adabiyotshunoslikda ham ,jumladan, askiya,lof, latifa janrlarining yozma adabiyotga ta'sirini o'rganish masalasida bosib o'tilgan yo'lni kuzatish, erishilgan yutuqlarni saralash, ularni yangicha mafkura, yangi nuqtai nazardan baholash zarurati yuzaga keladi. Zero, "Jahon madaniy merosining, jumladan ,o'zbek adabiyotining o'lmas asarlari bizga insoniyatning naslu nasabi, tarixiy ildizlari, oliyjanob ideallari bir ekanini "¹, xalqimizning xoxish-irodasi asosida dunyoga kelgan adabiy asarlarni chuqur mantiqiy mushohada qilish mas'uliyatini yuklaydi. Zamonaviy o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga xalq maydon kulgisi ta'sirini o'rganish yangi tadqiqot hisoblanadi.

"Hangoma" yoki "hangama" so'zlari forschadan olingan bo'lib, olomon, yig'in, gurunglashish, xushchaqchaq suhbat degan ma'nolarni bildirib keladi ². Zamonaviy o'zbek adabiyotida ayrim shoir va yozuvchilarni o'z asarlarini "hangoma" deb

¹ Mirziyoyev Sh.M. "Folklor san'ati insoniyatning bolalik qo'shig'li". Xalq baxshichilik san'ati festivali ochilishiga bag'ishlangan nutq. 2019-yil 6-aprel.

² .O'zbek tilining izohli lug'ati. 5jildlik. 5-jild. H-T."O'zbekiston milliy ensiklopediyasi "Davlat ilmiy nashriyoti. 2007. B-504.

ko'rsatgani bot-bot ko'zga tashlanadi. Bunday asarlarda bir necha kishi o'rtasida ro'y bergan xushchaqchaq, ko'tarinki ruhdagi shirin, kulgili suhbat hangoma sifatida qayd qilinadi. Ma'lumki, bir necha kishi o'rtasida yuz bergan xushchaqchaq, o'ziga va boshqalarga ko'tarinki ruh bag'ishlaydigan, kulgiga asoslangan suhbat xalq og'zaki ijodida askiya deb yuritiladi. Ammo hangoma faqat shirin, kulgili suhbatni emas, qahramonlar boshidan kechirgan kulgili holatlarni so'zlab berishni ham anglatadi. Ko'pincha tilimizda hangomalar shavqli, zavqli, sodda, samimiy, qiziq, ertaknoma kabi sifatlar bilan ishlatiladi. Insonlarning bir-biri bilan hangomalashishi to'yda, o'yin-kulgili ziyofat davralarda, yo'lda yuz beradi. Masalan, bu o'rinda Abdulla Oripovning xalqona ruhda yaratilgan "Hangoma" she'rini eslash kifoya. Unda ikki keksa kishining qish vaqti, qor bo'ralab yog'ib turgan bir paytda qo'shni ovulga to'yga boraman deb, yo'lda adashib qolishi bilan bog'liq kulgili bir voqea bayon etlgan. "O'zbeklarga xos bo'lgan qadimiy urf-odatga ko'ra, aytilgan joyga albatta boorish lozim"¹ bo'lgani uchun chollar yo'lda hangomalashib, yo'lni yo'qotib qo'yadilar va yana aylanib-aylanib o'z ovullariga kelib qoladilar. Buni bilmagan chollar bir eshikni taqillatadilar. Eshikni ochgan kampirni tanimay, undan bir kecha tunashga joy so'raydilar. Kampir esa ularni qarg'ab, urushib beradi. Negaki, kampir shu chollardan birini xotini ekan. Kampir "Nima balo, yeryutgur, iymoningdan kechdingmi?! Aljiraysan to'yda yo aroq- paroq ichdingmi?",- deb cholini koyiydi. A. Hamdamov yozganidek: "Kampirning bu gaplari asarning birinchi bandida ifodalangan yumoristik pafosning kulminatsion cho'qqisini hamda, yumoristik komfiliktning yechimini ifodalab keladi. Boshqacha aytganda, asardagi yumoristik mazmunning kulminatsiyasi bilan yechimi bir paytga to'g'ri keladi". Mana shu kutilmagan yechim, xuddi latifalardagidek favqulodda kulgini keltirib chiqaradi. Ma'lumki, kulgi sahnalarida ba'zan ayanchli ahvolga sababchi bo'lganlarni so'kish holati kuzatiladi. Bu so'kinish haqiqatni ochishga qaratilganligi bilan nafratga emas, aksincha, kulgi va zavqqa sabab bo'ladi. Jumladan, Abdulla Oripovning "Hangoma" sida ham chigal sharoitga tushib qolgan chollarning o'z nochor ahvollariga sabab bo'lgan to'y egasini "Qora qishda to'y qilmay

¹ Hamdamov A. "Abdulla Oripovning "Hangoma" sh'rida xalqona ruh". O'zbek tili va adabiyoti. 2004. 4-son. B-65-67.

battar bo'lgur nokas, gov. Bachchag'arning aslida fe'li sovuq ediyov.”, -deb so'kislari tasodifiy jahl ifodasi emas. Bu so'kinishda chollarning faqat to'y egasidan qahru g'azabi, noroziligi, jahli emas, ko'pni ko'rgan bo'lishlariga qaramay, yo'ldan adashganliklaridan alami, pushaymonligi ham aks etgan.

Hangomalar sodda tilda, xalqona iboralar, qochirimli gaplar, kinoya-kesatiqlar, olqish, qarg'ish va so'kinchlar, xalqona hazillar ishtirokida yaratilgani bilan xalq tilini adabiy tilga yaqinlashtirishga asos bo'ladi. Hangomalarda hayotda kam uchraydigan, kishini hayratga solib, kulgisini qo'zg'atadigan qiziqarli voqealar tasviri keltiriladi. O'tmishdan hozirgacha ruhan yaqin insonlarning u yoq- bu yoqdan, qiziq-qiziq voqealar haqida suhbat qilib, vaqtichog'lik qilish maqsadida hangoma davralari tashkil qilib kelinadi. Bunday yig'in ikki yoki undan ortiq kishilar⁴ o'rtasida uyushtirilgan. Hayotda hangomatalab, ya'ni hangomani, hangomalashishni yaxshi ko'radigan kishilar alohida toifani tashkil qiladi.

O'zbek adabiyotida hangomalarning she'riy va nasriy ko'rinishlari uchraydi. Abdulla Oripovning "Hangoma"si uning she'riy ko'rinishi bo'lsa, Anvar Obidjonning "Oltiariq hangomalari"¹ nasrda yaratilgan. Asarda keltirilgan kichik hajimli hikoyalardan biri uning "hangoma" ekaniga ishora qilinib shunday boshlangan: "Bu hangoma qirqinchi yillardan yodgorlik". Ko'rinadiki, hangomalar ko'pincha vaqt, muhit, vaziyat, sharoit tasviri bilan boshlanadi. Bu jihatdan Abdulla Oripov hangomasida dovuldan qolishmaydigan qor bo'ralab yog'ib turgan bir sharoitda qo'shni ovuldan to'yga boorish voqeasi tasvirlangan bo'lsa, Anvar Obidjon keltirgan hangomada o'tgan asrning qirqinchi yillarida Oltiariqda yuz bergan bir voqea xotirasi ifoda etilgan. Unda aytilishicha, zamona zayli bilan molboqar Xo'jamatning ukasi raykomga mas'ul ishga o'tibdiyu, kolxozning o'ta chalasavod(demak, o'ta laganbardor) raisi uni birdan ferma mudirligiga ko'taribdi. Shudgor mavsumida oblijroqo'm vakili kelib, Xo'jamatga odatdagi o'tkinchi po'pisalardan qilib, fermadagi go'nglarni brigadalarga taqsimlab berishni, haydovdan oldin yerga solishlari zarurligini buyuribdi. Nazoratini shaxsan Xo'jamatga topshiribdi. Qaysi brigadir biror

¹ Obidjon A." Oltiariq hangomalari". Hajviya va hangomalar. T. Ma'naviyat.1999.b-192

gramm go‘ngni isrof qilsa, ma‘lumot yuborib turishni tayinlabdi. Mabodo, bunaqa “xalq dushmanlari”ni yashirgudek bo‘lsa, uning o‘zini jazolashini aytib, po‘pisa qilibdi. Shundan so‘ng Xo‘jamatga xudo beribdi. U otda dalama-dala kezib, qaysi brigada o‘ramidagi yo‘l yoki uvatda yarim hovuch go‘ng to‘kilib qolgan bo‘lsa ham, egar qoshidagi xurjunidan osmatarozini olib, misqollab tortib ko‘rarkan hamda xalq dushmani bo‘lgan falonchining brigadasida 1215 gramm, buzg‘unchi zararkunandalar safdoshi pismadonchining brigadasida 153 gramm sara go‘ng shudgordan tashqarida sochilib yotibdi deb akt tuzishga kirishar ekan. Mana shu bois “axmoq axmoqqa amal bersa, el misqollab go‘ng teradi“, degan maqol birgina Oltiariqda ishlatilishi, uni faqat oltiariqlik tushinishi ta‘kidlab o‘tiladi.

Xullas, o‘zbek adabiyotida hangomalar yaratish o‘ziga xos uslub va badiiy shakl tipi sifatida shakllangan. Ularning shakllanishida xalq maydon kulgi san‘atining omil bo‘lgani seziladi. Keyingi yillarda hazilkashlikka yo‘g‘rilgan lutflardan iborat kulgili epizodik hikoyalarni “xanda”, “xandalar”, “kulgili hikoyalar”, “kulki hikoyalar”, ‘mutoyiba” kabi har xil qator nomlar ostida ham chop etmoqdalar. Aytish kerakki, bunday kulgili hikoya va xandalarning ancha-munchasi bora-bora xalq latifalariga aylanishi hech gap emas. Chunki latifa xalqning shu xildagi zarofatli og‘zaki epizodik hikoyalarni ifodalovchi istilohiy mohiyat kasb etib ulgurgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. *Mirziyoyev Sh.M.* "Folklor san'ati insoniyatning bolalik qo'shig'I". Xalq baxshichilik san'ati festivali ochilishiga bag'ishlangan nutq. 2019-yil 6-aprel.

2. *O'zbek tilining izohli lug'ati. 5jildlik. 5-jild. H-T.* "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi "Davlat ilmiy nashriyoti. 2007. B-504.

3. *Hamdamov A.* "Abdulla Oripovning "Hangoma' sh'rida xalqona ruh".\| O'zbek tili va adabiyoti. 2004. 4-son. B-65-67.

4. *Obidjon A.* "Oltiariq hangomalari". Hajviya va hangomalar. T. Ma'naviyat. 1999. b-192

5. Хаитов Х. Адабиётда кулгидан фойдаланиш анъанасининг асослари // *Общество и инновации*. – 2021. – Т. 2. – №. 3/S. – С. 49-52.

6. Ҳайитов Ҳ. А. ЛЎЛИ НОМИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЛАТИФАЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ // *Интернаука*. – 2021. – №. 17-4. – С. 51-52.

7. Khoja o'g'li T., Ahmadovich K. H. *Advanced Characteristics of the Tradition of Using Uzbek Folk Humor Art in Written Literature* // *American Journal of Social and Humanitarian Research*. – 2022. – Т. 3. – №. 9. – С. 1-4.

8. Khaitov H., Amonova S. ЎЗБЕК ҲИКОЯ ВА ҚИССАЛАРИДА КУЛГИ МАДАНИЯТИНИНГ ИЛДИЗЛАРИ // *Journal of Integrated Education and Research*. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 140-144.

9. Ҳайитов Х. А. ҒАФУР ҒУЛОМНИНГ ХАЛҚ ЛАТИФАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ МАҲОРАТИ // *Academic research in educational sciences*. – 2021. – Т. 2. – №. 3. – С. 679-687.

10. Akhmadovich H. H. *Khoja nasriddin afandi as people's hero* // *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*. – 2021. – Т. 11. – №. 2. – С. 1562-1565.

11. Akhmadovich K. K. *Symbolism of Birds in Uzbek Literature* // *International Journal on Integrated Education*. – Т. 3. – №. 4. – С. 59-63.